



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KASBGA IJODIY MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHNI AHAMIYATI VA MUHIM XUSUSIYATLARI

Nishonova Shohista Boymatovna
Iqtisodiyot va Pedagogik universiteti
pedagogika yo'nalishi 1-kurs magistranti

Karaxonova Oysara
QarDU "Pedagogika kafedrası mudiri, dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalashning ahamiyati, xorijiy mamlakatlar tajribasidan unumli foydalangan holda samarali ta'limni tashkil etish masalalari yoritilgan. Ta'limning bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan birgalikda til o'rganish, turli jahon adabiyoti qo'llanmalaridan bevosita foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish bayon etilgan. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbga tayyorlashda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, o'z kasbiga nisbatan kreativ yondashuvlarni tashkil etish masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim, mahorat, innovatsiya, texnologiya, strategiya, vatanparvarlik, milliy g'urur, bilimdonlik, ko'nikma, malaka, demokratik islohotlar, tajriba.

Аннотация

В статье рассматривается воспитание у будущих учителей творческого отношения к педагогической профессии, вопросы организации эффективного обучения с учётом передового опыта зарубежных стран. Наряду с воспитанием студентов бакалавриата в духе национального патриотизма подчеркивается важность изучения языков и формирования навыков непосредственного использования различных пособий по мировой литературе. Также освещены вопросы развития творческого мышления в



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

подготовке будущих педагогов и внедрения креативных подходов к профессии.

Ключевые слова: педагогика, образование, мастерство, инновация, технология, стратегия, патриотизм, национальная гордость, эрудиция, навык, квалификация, демократические реформы, опыт.

Annotation

The article discusses fostering a creative attitude toward the teaching profession among future educators and organizing effective education by drawing on the experience of foreign countries. Along with nurturing undergraduate students in the spirit of national patriotism, the importance of language learning and developing the ability to directly use various world literature resources is emphasized. The article also explores the development of creative thinking in teacher preparation and the implementation of innovative approaches to the profession.

Keywords: pedagogy, education, mastery, innovation, technology, strategy, patriotism, national pride, knowledgeability, skills, competence, democratic reforms, experience.

KIRISH

Pedagogika fanida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda asosiy qaratiladigan jihat bu insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari asosida ularni shakllantirishdir. Bugungi kun ta'limi yetuk malakali, zamonaviy bilimlarga ega o'qituvchi bo'lishni taqozo etadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'zining "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida shunday degan edilar: "Yoshlarni faqat bilimli emas, balki ma'naviyatli, vatandoshlik hissi kuchli, mustahkam axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishi uchun tarbiyalash zarur". Yurtboshimiz fikrlarini davom ettirib, jahon mamlakatlari ta'lim tizimiga mos bilim va tajribaga ega mutaxassislarni yetishtirish, malakasini oshirish, oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarni tarbiyalash borasida muhim tavsiyalar keltirdilar. 2018- yil 21-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2021-yillarda



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni imzolandi. Ushbu farmon yuzasidan mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar tashkil etildi. Jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbga tayyorlashda ijodiy yondashuvni rivojlantirish, kitobxonlikka jalb etish, kelajakda muhim yetuk mutaxassislarni tayyorlash masalasi ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu borada bo'lg'usi pedagoglarni nafaqat zamonaviy bilimlar, balki milliylikni targ'ib etgan holda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga urg'u berish ta'kidlandi. O'.J.Yo'ldoshev tahriri ostidagi "Umumiy pedagogika" qo'llanmada pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar quyidagi xususiyatlarni bilishi lozimligi keltiriladi:

- o'qituvchi shaxsini shakllantira olish;
- bo'lajak o'qituvchilarni ruhiy pedagogik tayyorgarligiga qo'yilgan talablarga javob berishi;
- mutaxassislikka oid muhim bilimlar asosida umumiy tayyorgarligining mazmunini anglash;
- o'z kasbiga muhabbat tuyg'usini shakllantirish.

Darhaqiqat, bugungi davr o'qituvchisini tayyorlashda ijodiy yondashish juda muhimdir. O'zbekiston xalqaro baholash dasturiga qo'shilgandan so'ng, bu tizimga mos darsliklar yaratildi. O'z-o'zidan innovatsion metodlar, mantiqiy topshiriqlarni qamrab olgan o'quv kitoblarini bolalar ongiga singdirish o'qituvchidan katta tajriba va mahorat talab etadi. Ushbu jihatni nazarda tutgan holda, eng avvalo, oliy ta'limda ta'lim olayotgan bo'lg'usi pedagoglarni kasbga ijodiy munosabatini shakllantirish davr talabidir. Kelgusida kerakli va yaxshi mutaxassis bo'lishni niyat qilgan yoshlar muayyan vaqt ichida zarur bilimlarni egallamoqlari darkor. Nelson Mandela: "Ta'lim dunyoni o'zgartiruvchi eng kuchli quroldir", - degan edi. Bugungi kunda 4 K modeli asosida o'qitish ta'limning barcha turlarida, jumladan oliy ta'limda ham yo'lga qo'yilgan. 4 K modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kommunikatsiya: Talabalarning boshqalar bilan muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantiradi. O'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

Kollaboratsiya: Talabalarning jamoatda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kritik fikrlash: Ushbu metodologiya talabalarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Talabalarning muammolarga analitik nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Kreativ fikrlash: Ijodiy fikrlashni va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchi o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar. Innovatsion yechimlarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Ko‘rinib turibdiki, ta’limda zamonaviy, bilimli va professional mutaxassislarni tayyorlashda ushbu modelda keng qamrovda foydalanilmoqda. Sifatli ta’lim berish uchun esa bo‘lajak pedagoglar o‘z kasbining mohiyatini anglashi, davr talabiga mos bo‘lishlari lozim. Yuqori ta’lim tizimiga ega Singapur misolida bu ishlar qanday amalga oshirilayotganini tahlil qilamiz. Kishining jamiyatda tutgan mavqeiga qarab emas, balki qobiliyatiga ko‘ra qadrlanishi Singapur davlati ta’limining asosiy tamoyili hisoblanadi. "Ikki tillilik" joriy etilgan bu mamlakatda talabalar birinchi navbatda ingliz tilini mukammal bilishlari, ona tili sanalgan xitoy, malay yoki tamil tillaridan kerakli sertifikatni qo‘lga kiritishi lozim. Matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi fanlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlovchi xalqaro baholash dasturida Singapur eng yuqori pog‘onani egalladi. Bu natijaga esa kuchli intizom va raqobat bilan erishildi. Singapurda ta’lim oluvchilar jami fanlar bo‘yicha ko‘rsatgan natijalariga qarab emas, har bir o‘qitiladigan fanlarga ko‘ra saralanadi, tasniflanadi. Ehtimol, shuning uchun Singapur universitetlari diplomlari butun jahonga amal qiladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi O‘zbekistonda ham bu borada samarali ishlar olib borilyapti. Jumladan, hozirda yurtimizda turli umumta’lim fanlari va chet tillaridan milliy sertifikatlar joriy qilingan. Dastlabki imtihon topshiruvchilarga qaraganda yaqin kunlardagi talabgorlar sonini sezilarli darajada oshganiga guvoh bo‘lish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, pedagoglarda o‘z fanini chuqur bilishga bo‘lgan intilish kuchaymoqda.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

Quvonarlisi, ular orasida talaba - yoshlarning ko'pligidir. Garchi chet tili o'z mutaxassisligi bo'lmasa ham til o'rganishga bo'lgan qiziqish ta'lim sifatini ko'tarishga xizmat qiladi. Chunki kuchli xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanib, ilmiy - adabiy qo'llanmalarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qila olish, o'z bilimlarini boyitish hamda amaliyotga tatbiq etish qanchalik muhim ekanligini anglab yetishmoqda

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalashda qanday yondashuv afzal hisoblanadi? Yosh pedagoglarni, avvalo, o'z shaxsini shakllantirish uchun ularda o'ziga bo'lgan ishonchni tarbiyalash, tirishqoqlik bilan kasbga bo'lgan qiziqishni iste'dod kuchi bilan birgalikda rivojlantirish darkor. Chunki to'g'ri tanlangan kasb orqali umr mazmunli o'tadi, sohasi tufayli daromad topadi. Shunday ekan, butun umrga arzirli, xalqqa hamda o'ziga naf keltiradigan, mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan kasrlarni yetishtirishda ularning ijodiy fikrlashi juda ahamiyatli sanaladi. Bo'lajak o'qituvchilarni zamon bilan hamnafas faoliyat yuritishi uchun ularni shu davr, uning jarayonlari, talablarini to'laqonli anglay oladigan mutaxassis sifatida kamol toptirmoq kerak.

Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kasbga tayyorlash borasida olimlarimiz tinmay izlanishlar olib bormoqdalar. Chunki davrlar almashib, siyosiy va ijtimoiy qarashlar o'zgarishga uchrar ekan, bu o'z navbatida ta'lim jarayonida o'z aksini topmoqda. Lola Rajabovanning "Kasbiy pedagogika" qo'llanmasida olima shunday deydi: " Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Mustaqillik yillarining ilk kunlaridan beri bu masala ustida bosh qotirilmoqda. Ko'pgina ziyoli insonlar bu borada o'z fikr va mulohazalarini taklif qildilar. Milliy urf-odatlar hamda an'analarga asoslangan holda ta'lim tizimini yaratish, samarali usullarni qo'llash lozim. XXI asrda o'qituvchilik faoliyati yanada takomillashmoqda. Bugungi kun o'qituvchisidan nafaqat bilim, tajriba, balki global dunyoda ijodiy fikrlay olish, yangi avlodni shaxs sifatida barkamol shakllantira olmog'i darkor". Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ rivojlanishi va faoliyatini tashkil etishida esa mamlakatimizda ko'pgina qulayliklar mavjud. Bundan unumli foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: " Erkin va farovon mamlakatni birgalikda barpo etamiz. Buning uchun har birimiz bir tan-u bir jon bo'lishimiz lozim".



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th March, 2025

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlash shu yurt kelajagi ravnaqining muhim sharti hisoblanadi. Pedagoglarni nafaqat o'z kasbida ijodiy munosabatini tarbiyalash, balki ularni axloqiy, estetik tomondan shakllantirish birinchi galdagi vazifamiz sanaladi. Bugungi kun ta'limida jahon standartlariga mos, raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalash zamonaviy o'qitish tizimining asosidir. Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida shunday degan edilar: " Mamlakat rivoji uchun har bir shaxs o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. O'z o'rnida bo'lgan har kishi davlat taraqqiyotining muhim omilidir". Darhaqiqat, insonlarning yarim umri o'z kasbida faoliyat yuritish bilan o'tarkan. Shunday ekan, yosh avlodni voyaga yetkazishda, ta'lim -tarbiya berishda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalash kelgusida malakali mutaxassislarni yetishtirish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - T.: 2020.
2. O'zbekiston Davlat ta'lim standarti. 35-2021.son. 2021-yil.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU , 2017. 48-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi " O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947 farmoni.
5. Lola Rajabova. Kasbiy pedagogika . T. 2010.
6. B. B. Rasulova. O'zbek xalq pedagogikasi . T. 2011.
7. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T. 2010.
8. O'.R. Yo'ldoshev. Umumiy pedagogika. Toshkent -2017.